


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

2021 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 6 859,6 mlrd. so‘mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 6 693,3 mlrd. so‘mni (100,6 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,1 mlrd. so‘mni (101,4 %), o‘rmon xo‘jaligida 120,9 mlrd. so‘mni (101,3 %), baliqchilik xo‘jaligida 45,3 mlrd. so‘mni (120,6 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari G‘allaorol (107,5 %), Yangiobod (104,9 %), Sharof Rashidov (104,8 %) va Forish (104,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shuningdek, o‘z navbatida Paxtakor (88,4 %) va Do‘stlik (89,2 %) tumanida past o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

2021 yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladi (umumiy hajmga nisbatan 77,7 foiz).

Dehqonchilik. 2021 yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 726,4 mlrd. so‘mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 93,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 26,0 foizni tashkil qildi.

Hosilni yig‘ib olish. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 434 618,5 tonna (o‘tgan yilga nisbatan 82,3 %) jami don, 429 895 tonna (81,5 %) boshqoli don, 404 352 tonna (83,1 %) bug‘doy, 630 tonna (173,1 %) makkajo‘xori, 10 418 tonna (109,5 %) kartoshka kovlab olindi, 58 386 tonna (113,0 %) sabzavotlar, 7 581 tonna


(111,3 %) oziqbop poliz, 15 852 tonna (102,8 %) mevalar va rezavorlar 651 tonna (107,7 %) uzum yig'ib olindi.

**2021 yilning yanvar-iyun xo'jalik toifalari bo'yicha
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Don jami	434 618,5	82,3	395 547	89,4	8 018	92,6	31 054	40,3
Boshqoli don	429 895	81,5	391 304	88,5	7 600	89,9	30 991	40,2
shundan: bug'doy	404 352	83,1	368 900	89,6	6 565	79,6	28 887	43,4
makkajo'xori don uchun	630	173,1	278	166,5	290	147,2	62	-
Kartoshka	10 418	109,5	1 840	184,9	8 563	100,8	15	75,0
Sabzavotlar- jami	58 386	113,0	19 497	145,8	38 508	101,2	381	174,8
Poliz – jami	7 581	111,3	2 525	3,1m.	2 202	103,4	2 854	73,9
Mevalar va rezavorlar-jami	15 852	102,8	3 572	109,2	12 194	100,8	86	156,4
Tokzorlar	651	107,7	66	2,1m.	543	100,7	42	127,3

2021 yilning yanvar-iyun oyida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Boshqoqli don (ming tonna)




Bug'doy (ming tonna)




Makkajo'xori don (ming tonna)




Kartoshka (ming tonna)




Sabzavotlar (ming tonna)




Poliz (ming tonna)




Mevalar va rezavorlar (ming tonna)




Uzum (ming tonna)



Terak ko'chatlari soni (ming dona)



Terak qatorlari soni (ming tup)



Chorvachilik. Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4 920,4 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan yanvar-iyunda foizni (2020 yilning yanvar-iyunida 103,6 %) tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 74,0 foizni tashkil etdi.

2021 yilning 1 iyul holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 895,6 ming boshga (101,9 %), shu jumladan sigirlar 254,4 ming boshga (101,5 %), qo'y va echkilar 2 213,9 ming boshga (101,6 %), otlar 27,3 ming boshga (100,7 %) parrandalar 3 166,1 ming boshga (103,4 %)ga yetdi.


2021 yil 1 iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming bosh	o'sish sur'ati, foizda	ming bosh	o'sish sur'ati, foizda	ming bosh	o'sish sur'ati, foizda	ming bosh	o'sish sur'ati, foizda
Yirik shohli qoramollar	895,6	101,9	48,6	114,6	826,3	100,5	20,7	114,8
Sigirlar	254,4	101,5	13,6	110,6	235,1	100,2	5,7	154,1
Qo'y va echkilar	2213,9	101,6	404	103,6	1591,9	100,3	218	107,5
Otlar	27,3	100,7	5,7	110,7	18,4	97,4	3,2	104,4
Parrandalar	3166,1	103,4	307,7	108,8	2013,8	100,2	844,6	109,8


Umumiy bosh soniga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shohli qoramollarning ulushi 92,3 foizni, fermer xo'jaliklarida 5,4 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 92,4 va 5,3 foizni, qo'ylar va echkilar 71,9 va 18,3 foizni, parrandalar 63,6 va 9,7 foizni tashkil qildi.

2021 yil 1 iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shohli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)




Qo'ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Otlar (ming bosh)




2021 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vaznda 88 319 tonna go'sht (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 102,9 foizga ko'p), 285 125 tonna sut (106,1 %), 130 791 ming dona tuxum (101,9 %) va 3 106 dona qorako'l teri (99,3 %) ishlab chiqarildi.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Ferma xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Go'sht, tirik vaznda, tonna	88 319	102,9	1 764	106,9	86 280	103,1	275	53,1
Sut, ming tonna	285 125	106,1	6632	107,5	277 960	106,2	533	66,5
Tuxum, ming dona	130 791	101,9	14683	2,3 m.	76 970	96,5	3 9138	93,1
Qorako'l teri, dona	3 106	99,3	2626	96,9	83	106,4	397	116,8
Ovlangan baliq	3 400	118,7	742,3	137,1	796,5	95,7	1 861,2	124,9

2021 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (tonna)



Sut (tonna)



Tuxum (ming dona)



Ovlangan baliq (tonna)

